



UDK:348.97:347.65:162

Sarvinoz ISMATOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail:ismatovasa@gmail.com

O'zMU dotsenti D.Fayzixodjayeva taqrizi asosida

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA MEROS MASALASINING MANTIQUIY DALILLANISHI

Аннотация

Maqolada islom huquqshunosligidagi merosga oid ayrim muammo (masala)larning "Hidoya" asarida berilgan yechimlari qanday asoslanganligi tahlil qilingan va dalillash usullarining mantiqiy shakllari aniqlangan.

Kalit so'zlar: Islom dini, Hidoya, meros taqsimoti, merosxo'rlar, fiqhiy qoidalar, mantiqiy dalillash.

ЛОГИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ ВОПРОСА НАСЛЕДСТВА В ТРАКТАТЕ БУРХАНУДДИНА МАРГИНОНИ "ХИДОЯ"

Аннотация

В статье анализируется, как обоснованы решения некоторых проблем (вопросов), касающихся наследования в исламском праве, представленные в труде "Хидоя", и определены логические формы методов аргументации.

Ключевые слова: Религия Ислам, Хидоя, вопрос наследства, наследники, распределение долей, логическое обоснование.

LOGICAL EVIDENCE OF THE INHERITANCE ISSUE IN BURHANUDDIN MARGINANI'S WORK "HIDAYAH"

Annotation

The article analyzes the substantiation of solutions to particular inheritance questions in Islamic law, as presented in "Hidayah", and defines the logical forms of the methods of argumentation used.

Keywords: Religion of Islam, Hidayah, inheritance issue, heirs, share distribution, logical evidence.

Kirish. Bugungi kunda xalqimiz orasida merosni taqsimlash borasida ba'zi tushunmovchiliklar sodir bo'lmoqda. Natijada, merosxo'rlar orasida turli oilaviy nizolar kelib chiqishi kuzatilmoqda. Bunday holatlardan biri vafot qilgan kimsadan qolgan meros molining hammasi katta farzandga o'tayotganligi, yoki aksincha uyda qolgan farzand bor mol-mulka ega chiqayotganligi bo'lsa, boshqasi ota-onalar tirikligida farzandlar o'zaro meros talashish dardiga muhtalo bo'lishayotganligidir. Hatto, ayrim xolatlarda ayollarni merosdan mahrum qilish ham uchramoqda. Albatta, bu kabi achinarli voqealar eng avvalo ilmsizlik oqibati bo'lsa, ikkinchi tarafdin ota-onalar tirikligida o'zidan qoladigan merosni farzandlari orasida adolat bilan taqsim qilmagani tufaylidir. Ba'zilarining merosga oid diniy va huquqiy bilimlardan bexabarligi noto'g'ri qarorlar va adolatsiz taqsimotlarga olib kelmoqda.

Meros taqsimoti oldida ko'ndalang bo'lib turgan vazifalardan biri bu ota-onalarning mazkur masalada o'z mustaqil bilimlariga ega bo'lishlari, har bir oilaning adolat tarozisi asosida yo'l tutishlaridir. Bu esa oila mustahkam bo'lishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ayni vaqtda yurtimizda ham meros ilmini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda meros huquqiga oid bir nechta mustaqil asarlar va maqolalar yozilgan bo'lib, ularda asosan meros masalasi, uning mohiyati, taqsimlanishi, asosiy xususiyatlari o'rganilgan, ammo "Hidoya" asari asosida merosga oid masalalarning mantiqiy dalillanishi o'rganilmaganligi ma'lum bo'ldi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada mutafakkir ijodida meros masalasini mantiqiy dalillanishini ba'zi misollar orqali yoritib berishni maqsad qilib qo'ydik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Islom meros huquqi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U mazmuni va tuzilishi jihatidan juda serqirra va murakkab bo'lganligi sababli ko'plab islom dini huquqshunos allomalari bu masalani fiqh ilmi negizida va hatto undan ajratib olgan holatda mufassal o'rganganlar. Masalan, Hanafiy mazhabi olimlari meros huquqini qonun va vasiyat bo'yicha ajratib o'rganganlar.

Mana shunday allomalardan biri fiqhshunos olim Burhonuddin Marg'inoniy hisoblanadi. U yozgan 4 jildli "Hidoya" kitobi sunniylik oqimida hanafiya mazhabi bo'yicha juda muhim va mukammal huquqiy manba sifatida 55 dan ortiq kitob, yuzlab bobu fasldan tarkib topgan bo'lib, [1] meros huquqini ham qamrab oladi. Asarda muallif huquqiy masalalarni tahlil qilishda islom dinining asosiy manbalari bo'lmish Qur'oni Karim, Sunnat, Ijmo hamda eng ko'proq Qiyosga e'tibor qaratganini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy davrda Turkiya Respublikasida yozilgan Abdussalom Arining "Islom meros huquqi", Hamza Aktanning "Taqqoslamali islom meros huquqi", Mustafu Uzunpostaljining "Islom Huquqi" kabi asarlarida faroiz ilmi mohiyatini tushuntirishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, Abdurrahmon Yazijining "Sahoba davrida meros huquqining qo'llanilishi" nomli magistrlik ishida islom meros huquqining asoslari, taqsimlanishi o'rganilgan. Mehmet Sevenning "Tamoyillar va ulushlar nuqtai nazaridan islom meros huquqining asoslari" nomli magistrlik dissertatsiyasi hamda Alparslan Alkishning "Islom huquqida meros hissalarining shar'iy asoslari" nomli maqolalarida ham meros masalalari tadqiq qilingan.

Yurtimizda ham meros mavzusi xalqimiz uchun o'ta dolzarb mavzu bo'lganligi sababli olimlarimiz tomonidan fahmlashga oson, hayotga tatbiq qilishga qulay kitoblar yozilgan hamda bir nechta mashxur asarlar tarjima qilingan.

Xususan, Shayx Muhammad Ali Sobuniyning "Islom shariatida meros ilmi" (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasini), Firdavsxon Sayyid Olimxonning "Meros ilmi", Afzal Abrorning "Islomda meros va uning taqsimoti" singari asarlar faroz ilmi fazilati bilan bog'liq zarur masalalarni o'z ichiga olgan bo'lsa, A.Djumanovning "Meros ilmining asosiy xususiyatlari", A.Ismoilovning "Meros ilmi tarixi va uning mohiyati", S.Muhammadiyevning "Burhonuddin Marg'inoniyning faroz ilmi rivojida tutgan o'rni" kabi maqolalarida meros ilmi mohiyati, asosiy xususiyatlari va tarixi bayon etilgan. Lekin ularda huquqiy masalalarning mantiqiy asoslash usullari ko'rib chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning germeneytik tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish kabi usullaridan, shuningdek, deduksiya, induksiya, analogiya kabi dalillash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Burhonuddin Marg'inoniy o'z zamonasining yetuk faqihlaridan biri bo'lib, fiqh fanining rivojiga katta hissa qo'shgan allomadir. Uning qalamiga mansub "Hidoya" asarida ko'plab huquqiy masalalar tahlil qilingan bo'lib, meros masalasiga ham alohida e'tibor berilgan.

Burhonuddin Marg'inoniy fiqhiy nuqtai nazardan, huquqiy masalalarni izohlash jarayonida, ularning mashru' (qonuniy) yoki nomashru' (g'ayriqonuniy) ekanligini naqliy dalillardan keyin, aqliy dalillar bilan yoritib o'tadi. [2] Bundan tashqari, faqih o'zi ixtiyor qilgan mazhab dalillarini eng so'ngida keltiradi.

Marg'inoniy adolatli hamda mukammal yechim chiqarish maqsadida islom dinining huquqshunoslari ta'limotlaridan ma'lum huquqiy masalalarni tahlil etishda argumentlashning qiyos (sillogizm) usullaridan keng foydalangan. Quyida faqihning "Hidoya" asari 4-juzida meros masalasiga oid ba'zi misollarni tahlil qilish barobarida buni ko'rib chiqamiz:

1-misol: Agar nasroniy kishi vafot qilsa va uning ayoli musulmon bo'lib kelib: «U (nasroniy erimning) vafotidan keyin Islomga kirdim», desa va merosxo'rlar: «Sen eringning vafotidan oldin Islomga kircansan», deyishsa, merosxo'rlarning so'zi qabul qilinadi (buning natijasida ayol merosdan mahrum bo'ladi). (431-bet)

Bu vaziyatda muammo: Ayol merosxo'rmi?

Tezis1: Ayol merosxo'r. (Zufar r.h.ga ko'ra)

Argumentlari:

A1: Ayoldagi musulmonlik keyin paydo bo'lgan holatdir (ya'ni Islomni qabul qilgan ayol nasroniy erining vafotidan keyin Islomga kirgan bo'lsa, eri qoldirgan merosdan o'z ulushini oladi. Chunki bunday holatda ayol erining dinida bo'lgan bo'ladi. Agar ayol nasroniy erining vafotidan oldin Islomga kirgan bo'lsa, u er qoldirgan merosdan o'z ulushini ololmaydi. Chunki bunday holatda ayolning dini boshqa bo'lgan bo'ladi. (Dinning boshqa bo'lishi kishining merosdan mahrum bo'lishiga omil bo'ladi).

A2: Islomga kirgani eng yaqin zamonga bog'lanadi.

Demonstratsiya: Agar nasroniy ayol nasroniy erining vafotidan keyin Islomga kirgan bo'lsa (p), unda u merosxo'r bo'ladi (q). Nasroniy ayol nasroniy erining vafotidan keyin Islomga kirgan (p), demak u merosxo'rdir (q).

Bu misol algoritmi quyidagicha:

$$p \rightarrow q \quad \text{yoki} \quad [(p \rightarrow q) \wedge p] \rightarrow q$$

q

Tezis2: Ayol merosxo'r emas. (Marg'inoniyga ko'ra)

Argumentlari:

A1: Istisxob qoidasiga ko'ra (ya'ni bir narsaning o'zgariganiga doir dalil bo'lmagan holatda uni avvalgi holatida qoldirish) ayolning so'zi qabul qilinmaydi.

A2: Tegirmon suvining oqishi va to'xtab qolishi bilan bog'liq masaladagi holatga qiyosan (ya'ni ijarachi va ijaraga oluvchi tegirmon suvi oqib, bir muddat o'tganidan so'ng suv to'xtab qolgan borasida tortishib qolishsa, ayni damdagi holat e'tiborga olinadi. Agar suv oqib turgan bo'lsa, u avvaldan oqib turgan deb, oqmayotgan bo'lsa, avvaldan oqmayotgan deb hukm qilinadi).

Demonstratsiya: Agar nasroniy ayol nasroniy erining vafotidan oldin Islomga kirgan bo'lsa ($\neg p$), unda u merosxo'r bo'lmaydi ($\neg q$). Nasroniy ayol nasroniy erining vafotidan oldin Islomga kirgan ($\neg p$), demak u merosxo'r emas ($\neg q$).

Bu misol algoritmi quyidagicha:

$$\begin{array}{l} \neg p \rightarrow \neg q \\ \neg p \quad \text{yoki} \quad [(\neg p \rightarrow \neg q) \wedge \neg p] \rightarrow \neg q \end{array}$$

Demak, Marg'inoniy yuqoridagi huquqiy masalani asoslashda fiqh ilmidagi istisxob qoidasiga tayangan (analogiya) va qiyosdan foydalangan.

2-misol: Agar musulmon kishi vafot etsa va uning nasroniy ayoli bor bo'lgan bo'lsa va ayol (musulmon) erining vafotidan keyin musulmon holda kelib: «Men erimning vafotidan oldin Islomga kirganman», desa va merosxo'rlar: «Sen eringning vafotidan keyin Islomga kircansan», deyishsa, yana merosxo'rlarning so'zi qabul qilinadi. Ayni vaqtdagi holat hakam qilinmaydi. (432-bet)

Bu vaziyatda ham muammo: Ayol merosxo'rmi?

Tezis: Ayol merosxo'r emas. (Marg'inoniyga ko'ra)

Argumentlari:

A1: Zohiriy holat ayolning merosga haqdor bo'lishi uchun dalil bo'la olmaydi.

A2: Yangi paydo bo'lgan narsa eng yaqin vaqtga bog'liq bo'ladi.

A3: Istisxob qoidasiga ko'ra ayolning so'zi qabul qilinmaydi.

Demonstratsiya: Agar nasroniy ayol musulmon erining vafotidan oldin Islomga kirgan bo'lsa (p), unda u merosxo'r bo'ladi (q). Nasroniy ayol musulmon erining vafotidan keyin Islomga kirgan ($\neg p$), demak u merosxo'r emas ($\neg q$).

Bu misol algoritmi quyidagicha:

$$\begin{array}{l} p \rightarrow q \\ \neg p \quad \text{yoki} \quad [(p \rightarrow q) \wedge \neg p] \rightarrow \neg q \end{array}$$

Demak, Marg'inoniy bu huquqiy masalani dalillashda ham fiqh ilmidagi istisxob qoidasiga va qiyosga tayangan.

3-misol: Bir kishi vafot etsa va bir kishining qo'lida unga tegishli omonatga qoldirilgan to'rt ming dirhami bo'lsa va omonatni ushlab turgan kishi: «Bu o'lgan kishining o'g'li, uning bundan boshqa vorisi yo'q», desa, omonatdor mablag'ning hammasini mayyitning o'g'liga beradi. (433-bet)

Bu vaziyatda muammo: Omonatdor mablag'ni kimga beradi?

Tezis: Omonatdor mablag'ni mayyitning o'g'liga beradi. (Marg'inoniyga ko'ra)

Argumentlari:

A1: Voris mayyitning o'rinbosari bo'lgani sababli omonatdor o'zining qo'lidagi mablag' vorisning haqqi ekaniga (qozining oldida) iqrar bo'lgan.

A2: Omonatdor o‘zining qo‘lidagi mablag‘ tirik bo‘lgan meros qoldiruvchining haqqi ekaniga iqror bo‘lgan holatga qiyosan.

Demonstratsiya: Agar omonatdor o‘zining qo‘lidagi mablag‘ vorisning haqqi ekaniga (qozining oldida) iqror bo‘lsa (p), unda u mablag‘ning hammasini mayyitning o‘g‘liga beradi (q). Omonatdor o‘zining qo‘lidagi mablag‘ vorisning haqqi ekaniga (qozining oldida) iqror bo‘ldi (p), shuning uchun u mablag‘ning hammasini mayyitning o‘g‘liga beradi (q).

Bu misol algoritmi quyidagicha:

$$p \rightarrow q \quad \text{yoki} \quad [(p \rightarrow q) \wedge p] \rightarrow q$$

$$\frac{p \rightarrow q \quad p}{q}$$

Demak, Marg‘inoniy ushbu huquqiy masalani dalillashda shartli qat‘iy sillogizm (qiyos)dan foydalangan.

4-misol: Agar omonatdor bir kishiga (ishora qilib): «Bu ham omonat egasining o‘g‘li», desa, avvalgi o‘g‘il esa: «Otamning mendan boshqa o‘g‘li yo‘q», desa, qozi molni avvalgi o‘g‘ilga berishga hukm qiladi. (434-bet) [3]

Bu vaziyatda muammo: Qozi qanday hukm qiladi?

Tezis: Qozi molni avvalgi o‘g‘ilga berishga hukm qiladi. (Marg‘inoniyga ko‘ra)

Argumentlari:

A1: Omonatdorning avvalgi o‘g‘il (mayyitning o‘g‘li ekaniga) iqrori sahih bo‘lgach, omonatdorning molni ushlab turish huquqi tugaydi. Shuning uchun (omonatdorning) ushbu (ikkinchi) iqrori birinchi o‘g‘ilga qarshi iqror sanaladi.

A2: Omonatdorning birinchi iqrorini hech kim yolg‘onga chiqarmagan, ammo ikkinchi iqrorini birinchi o‘g‘il yolg‘on deb aytgan.

A3: Omonatdorning ikkinchi o‘g‘il foydasiga qilgan iqrori sahih bo‘lmaydi.

Demonstratsiya: Omonatdorning birinchi iqrorini hech kim yolg‘onga chiqarmaganligi sababli sahih bo‘ldi (a1), shuning uchun qozi molni birinchi o‘g‘ilga berishga hukm qildi (c). Omonatdorning ikkinchi iqrorini birinchi o‘g‘il yolg‘onga chiqarganligi sababli sahih bo‘lmadi (\neg a2). Shuning uchun qozi molni yana avvalgi o‘g‘ilda qoldirishga hukm qildi (c). Hukm sof shartli xulosa chiqarishga asoslangan.

Bu misol algoritmi quyidagicha:

$$\frac{a1 \rightarrow c \quad \neg a2 \rightarrow c}{c} \quad \text{yoki} \quad [(a1 \rightarrow c) \wedge (\neg a2 \rightarrow c)] \rightarrow c$$

Demak, Marg‘inoniy ushbu huquqiy masalani dalillashda umumiy fiqhiiy qoidalarga tayangan.

Bunda, \wedge - konyunksiya belgisi \rightarrow - implikasiya belgisi \neg - inkor belgisi.

Yuqoridagi misollar tahlilidan Marg‘inoniy bir nechta faqihning hukmini keltirish orqali huquqiy masalalarni aniqroq va mukammal yoritishni maqsad qilganligini guvohi bo‘ldik.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, Burhonuddin Marg‘inoniy “Hidoya” asarida meros masalalarini dalillashda fiqhiiy qoidalar asosida adolat va tartibga muvofiq yondashuvlar bilan bayon etganligi, hukm chiqarishda dalillashning deduktiv (qiyos) va analogiya usullaridan foydalanganligi aniqlandi. Ba‘zi huquqiy masalalardan misol keltirish orqali faqih foydalangan mantiqiy usullar tahlil qilindi, natijalar umumlashtirilib, zaruriy xulosalar chiqarildi. O‘z navbatida, islom huquqshunosligida mantiqiy dalillash usullarining qo‘llanishi anchayin keng qamrovli va murakkab mavzu bo‘lganligi sababli kelgusida ko‘p tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Jamalov S. “Al-Hidoyaning asriy hidoyasi”. «INFOLIB» axborot-kutubxona xabarnomasi, Toshkent – 2019. № 2, B. 76.
2. Burhonuddin Marg‘inoniy. “Hidoya sharh bidoyatil muftadi”. 1-juz – T.: Hilol-nashr, 2022. – B. 27.
3. Burhonuddin Marg‘inoniy. “Hidoya sharh bidoyatil muftadi”. 4-juz – T.: Hilol-nashr, 2022. – B. 431-432-433-434.
4. Fayzixodjaeva D. Argumentlash nazariyasining falsafiy asoslari. Toshkent: LAVITA PRINT nashriyoti, 2025. 85 b.